



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022

IYUL

№42



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00



www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
21-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-21**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-21**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 42-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 июль 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 15 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

КИМЁ ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ

1. Otajonova Shoira

МАКТАБЛАРДА КИМЫО ФАНИНИ О'QITISH JARAYONIDA PISA TADQIQOTINING
O'RNI VA ROLI 7

2. Ahmadova Sohiba Ulug'bek qizi

BILISH JARAYONIDA O'Z TENGQURLARIDAN O'ZIB KETISHI 9

3. Salimbekov Hamid Artikbayevich

МАКТАБДА КИМЫОВИЙ ISHLAB CHIQARISHNING AHAMIYATI 11

4. Saribaeva Gozel Oredurdiyevna

KIMYO DARSALARIDA KASBGA YO'NALTIRISHGA OID MASHG'ULOTLARI VA
TURLI MADANIY UMUMIY TADBIRLAR O'TKAZISH 13



КИМЁ ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ

МАКТАБЛАРДА КИМЫО ФАНИНИ О‘QITISH JARAYONIDA PISA TADQIQOTINING O‘RNI VA ROLI

Otajonova Shoira,
Xorazm viloyati Xonqa tumani
8-maktab kimyo fani o‘qituvchisi
Telefon: +998976007252

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta’lim muassasalarida zamonaviy va axborot texnologiyalarning kimyo fanini o‘qitish jarayonida pisa tadqiqotining o‘rni va kimyo laboratoriya amaliyotida o‘zlashtiriladigan bilimlarni, o‘quv va malakalar samarali kengaytirish, bilimlar majmuasini miqdoriy baholash hamda ta’lim jarayonini boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy qilish masalalari hususida muloxaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim sifati, xalqaro baxolash, globallashuv, PISA.

Ma’lumki, Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning qarori bilan 2021-2022 o‘quv yildan boshlab kimyo va biologiya yo’nalishlarida kadrlar tayyorlayotgan barcha oliy ta’lim muassasalarini umumta’lim maktablari bitiruvchi sinflari o‘quvchilari o’rtasida ko’p bosqichli (tuman (shahar) – viloyat – oliy ta’lim muassasasi) kimyo va biologiya fani bo’yicha o’zining olimpiadasini o’tkazish va 1-3 o’rnlarni egallagan o‘quvchilarni oliy ta’lim muassasasining mablag’lari hisobidan imtihonsiz o‘qishga qabul qilinishi belgilandi.

Hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlarning, umuman dunyo mamlakatlari islohotlarining aksar qismi mamlakat iqtisodiy holatini yanada yaxshilashga qaratiladi. Xususan, ushbu qaror mohiyatida ham mamlakatning kimyo sanoatiga etuk kadrlar tayyorlash orqali mamlakat iqtisodiyotiga salmoqli hissa qo’shilishi reja qilingan. Buning natijasida biz elita talabalarga ega bo’lamiz. Elita talabalardan esa elita mutaxassislar tayyorlanadi. Umumta’lim muassasalarida texnologiyalarning kimyo faniga kiritilishiga, kimyo laboratoriya amaliyotida o‘zlashtiriladigan bilimlarni, o‘quv va malakalar samarali kengaytirish, bilimlar majmuasini miqdoriy baholash hamda ta’lim jarayonini boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini yaratish va ularni amaliyotga joriy qilish bilan bog‘liq muammolarga bag‘ishlangan. Ma’lumki, maktab kimyo ta’limida o‘quvchilarga fan va texnika so’nggi yangiliklar i, kimyo sohasidagi kashfiyotlar va ularning mazmuni, mohiyatlari bilan tanishtirib borish davr talabi hisoblanadi. Kimyo fanini o‘qitishni takomillashtirish o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularning aql zaxirasidagi bilimlar doirasida chuqurlashtirish va yangi imkoniyatlarga tayanuvchi samarali usullarni joriy qilish dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Kimyo fanini o‘qitishni takomillashtirish uchun sohada faoliyat yuritib kelayotgan umumiyl o‘rtalim maktablarining kimyo fani o‘qituvchilarining bilimi va kasbiy mahoratini zamon talablariga moslashtirish va xalqaro miqyosda ta’limda ro’y berayotgan yangiliklar va islohotlardan xabardor bo‘lib borishlari va ulardan eng samaralilarini o‘z faoliyatlarida qo’llab borishlarini taminlash nihoyatda muhimdir.

PISA nimaligini bilib olishimiz kerak. O‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro baholash dasturi bo‘lib, uning natijalari asosida dunyo mamlakatlari o‘quv dasturlarida mavjud talablar doirasida o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo’llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan. Shu bilan birga, bu hech qanday o‘quv dasturini belgilamaydi, targ‘ib qilmaydi va umumiyl e’tirof etishni taqozo etmaydi.

Toshkent hayotning turli jihatlari bilan bog‘liq bo‘lib, u yoki bu darajadagi matematikalashtirishni talab qiladi. PISA tadqiqotida asosan o‘quvchilarda qiziqishini uyg‘otadagan hamda ularning shaxsiy dunyosiga yaqin bo‘lgan vaziyatlar qaraladi. Jumladan, o‘quvchilarning shahsiy turmushi va maktabdagagi ta’lim-tarbiyasi, so‘ng kasbiy faoliyat, mahalliy jamiyatning va butun insoniyatning



xayoti professional faoliyat, mahalliy jamoa va butun insoniyatning kundalik hayoti real dunyoning eng yaqin qismi sifatida olingan. Xulosa qilib aytganda, Umuman xalqaro PISA dasturining asosiy maqsadi davlatlarni rivojlanishida kadrlar masalasiga kuchli e'tibor berishni ko'zda tutadi. Chunki, yuqorida dastur qo'ygan talablar o'quvchilarning bilimini konpetensiyaviy darajaga olib chiqishga qaratilgan.

Bu esa albatta kelajakda mamlakatning yutek kadrlar bilan ta'minlanishiga zamin yaratadi. Demak umumta'lim maktablarida kimyo fanida albatta pisa tadqiqoti ya'ni xalqaro baxolashni va pisa testlarini qo'llashimiz kerak, bu yangilik va yangilanishlar o'quvchini hayotda erkin fikrleshiga muammoli vaziyatlarda o'z irodasini toplanishiga yordam beradi. Shundan ma'lumki buning natijasida kimyo fani o'z o'rnidida boshqa fanlar bilan integratsiyaga kirishadi. Masalan biologiya va matematika fanlari shular jumlasidandir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Pak M.S. Teoriya i metodika obucheniya ximii. - Sankt-Peterburg: (RGPU imeni Gersena), 2015.
2. Raxmatullaev N.G., Omonov H.T., Mirkomilov Sh.M. Kimyo o'qitish metodikasi. – Toshkent: (Iqtisodiyot – Moliya), 2013.



BILISH JARAYONIDA O’Z TENGQURLARIDAN O’ZIB KETISHI

Ahmadova Sohiba Ulug’bek qizi

Navoiy viloyati Karmana tumani
26 – maktab kimyo fani o’qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada kimyo darslarida o’quvchilarning bilish jarayonida o’z tengqurlaridan o’zib ketishi, iqtidorli bolalarni aniqlash haqida yoritilgan.

Kalit so’zlar: iqtidorli va iste’dodli o’quvchi, iqtidor, idrok.

Iqtidorli va iste’dodli bolalar bilish jarayonida o’z tengqurlaridan o’zib ketishi quyidagi belgilarda ko’rinadi:

1. Idrokning kengligi

Atrof voqealarga juda sezgir va qiziquvchan, ular uchun dunyo nimadan tarkib topganligini bilish va kuzatish juda qiziqarli.

2. Kuchli xotira va nutq

Xotiraning kuchli bo’lishi va nutqning erta rivojlanganligi iqtidorli bolaning o’zib ketishida qo’l keladi.

3. Lug’at boyligi

Iste’dodli bolalar juda kata lug’at boyligiga ega bo’ladilar va ular yangi – yangi so’zlar ixtiro qilishga qiziqadilar.

4. Murakkablikka intilish

O’z qobiliyati bilan eng murakkab masalalarni ishlashni yoqtiradilar, tayyor javoblarni olishni yoqtirmaydilar

5. Matematik qobiliyat

Ba’zi iste’dodli bolalar matematik qobiliyatiga ega bo’lib, hisoblashni yaxshi ko’rishadi. Ular chuqur mantiqqa ham ega bo’ladilar.

Mutaxassislar tavsiya qiladi:

Karne, Shvedal va Linnemay 1982 yilda iste’dodli bolalar bilan ishlash me’zonlarini ishlab chiqqan.

❖ Har bir bolaning iste’dodi av qiziqishiga qarab maxsus reja va mukammal dastur ishlab chiqish lozim.

❖ Bolaning atrofidagi yaqinlari, oila, maktabning e’tibori juda muhim.

❖ Iste’dodli bolalar oddiy bolalar bilan o’qiyotgan taqdirda ham, boshqa iste’dodli bolalar bilan muloqot qilish imkoniyatini yaratish kerak

❖ Iste’dodli bolalar bilan ishlashda talantli tarbiyachi, o’qituvchilarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

IQTIDORLI O’QUVCHI QANDAY ANIQLANADI?



“Iqtidorli o’quvchilarni aniqlash va o’qitish uslubiyot, psixologik – pedagogik va tashkiliy sharoitlarni yaratiladi, bunday bolalar va yoshlarga oid ma’lumotlarning respublika banki va monitoringi shakllanadi”

IQTIDORLI O’QUVCHILAR BILAN ISHLASH QANDAY TASHKIL ETILADI?

➤ “Maxsus dasturlari, progressiv pedagogik texnologiyalar” ishlab chiqish uchun eng yaxshi pedagog va olimlar jalb qilinadi, o’quv – tarbiya jarayonida ularning faol ishtiroki ta’minlanadi.

➤ Fan va texnika, siyosat va iqtisodiyotni, madaniyat va san’atni o’rgatish markazlari qabilidagi hamda milliy (elita) ta’lim muassasalari tahlil etiladi.





➤ Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni chet ellarga umumiyligi va kasbiy jihatdan tayyorlarlikdan o'tkazishga qaratilgan sobitqadam faoliyat amalga oshiriladi.

"O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI "KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI" DAN

➤ **IQTIDORLI O'QUVCHILARNI ANIQLASH, ISHLASH, RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI**

Kadrlar tayyorlashda dolzarb va katta istiqbolli yo'nalishlardan biri – muktab o'quvchilari orasidan iqtidorli, zukko bolalarni aniqlash, ularni alohida dasturlar asosida o'qitish, xalq xo'jaligiga uchun malakali mutaxassislar qilib yetishtirlashdir. O'zbek avlodini jahonga ko'z – ko'z qiladigan insonlar bu iste'dodli, qobiliyatli, zukko, malakali, o'z ishining ustasi bo'lgan yoshlardir. Dono, tetik, aqli raso bolalarni sinf o'quvchilari orasidan asosli ravishda tanlashimiz va ularni layoqat yo'nalishlari, qobiliyatlariga qarab u yoki bu sohaga, kasbga yo'naltirishimiz kerak. Iste'doddarni tanlashda aslo xatoga yo'l qo'ymaslik kerak.

- 1. *Muktab rahbari va muktab psixologi bilan hamkorlikda shahar XTMFMTTEB Tashxis markazi bilan bevosita ish olib borish*
- 2. *Iqtidorli o'quvchilar mustaqil fikr bildirishi, ijodkorligini namoyon etishi uchun imkoniyatlar yaratib berish*
- 3. *Iqtidorli deb tan olingan o'quvchilarni fan o'qituvchilariga biriktirish, fan olimpiadalariga, konferensiyalarga jaib etish*
- 4. *Iqtidorli o'quvchilarining "Umid", "Kamolot", "Kamalak", "Kelajak ovozi" kabi jamg'armalar tomonidan o'tkaziladigan musobaqalarda faol qatnashishiga yordam berish*
- 5. *Iqtidorli o'quvchialrnin ixtisoslashgan sinflarga, maxsus fan to'garaklariga, klublarga jaib qilish*
- 6. *Iqtidorli o'quvchilarining qobiliyatlarini rivojlantirishda muktab psixologi, fan o'qituvchilari va ota - onalar hamkorligini kuchaytirish*
- 7. *Iqtidorli o'quvchilarni doimiy rag'batlantirish (ijod namunalari ko'rgazmalarini tashkil etish, maxsus stipendiyalarga tavsiya qilish, faxriy yorliqlar berish va boshqalar)*

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.A.Parpiyev, X.R.Raximov, A.G.Muftaxov. “Anorganik kimyo nazariy asoslari”. Toshkent. “O'zbekiston”. 2000 y
2. Кукушкин Ю.Н. «Химия координационных соединений» Высшая школа, 1985. — 457 с.



МАКТАБДА КИМЫОВИЙ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИҢ АХАМИЯТИ

Salimbekov Hamid Artikbayevich

Toshkent viloyati Chinoz tumani
35 – maktab kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada maktabda o'quvchilarga kimyoviy ishlab chiqarishning ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: kimyoviy ishlab chiqarish, politexnik tayyorgarlik, diapozitivlar.

Maktabda kimyoviy ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini o'rganish- o'quvchilarga politexnik tayyorgarlik berish vazifasini hal qilish uchun eng muhim vositalardan biridir. Kimyo ishlab chiqarishni o'rganish nazariyasi bilan amaliyotni bog'laydi, bilimlarni konkretlashtiradi, chuqurlashtiradi va puxtalaydi, yoshlarimizni maktabni tugatgandan keyin erkin ravishda kasb tanlab olishlariga va mustaqil davlatimizning aktiv ishtirokchilari bo'lib, yetishishlariga yordam beradi.

Kimyo o'qituvchilari kimyo darslarida kimiyoning amaliy turmushda qo'llanilishiga e'tiborni jalg qiladilar, o'quvchilarni eng muhim kimyoviy ishlab chiqarish bilan tanishtiradilar, mahalliy sanoatga ekskursiya o'tkazadilar, texnologik sxemalar, jadvallar, modellar, diapozitivlar, kinofilmlar va boshqa ko'rgazmali qo'llanmalardan foydalanadilar.

O'quvchilarni kimyoviy ishlab - chiqarishlar bilan tanishtirish jarayonida o'qituvchi oldida bir qancha masalalar turadi: jumladan, kimyoviy ishlab chiqarishni tanlash, kimyoviy ishlab-chiqarish to'g'risidagi beriladigan bilimlar me'yori, kimyoviy ishlab chiqarishlar bilan tanishtirishning metodik prinsiplari, ishlab chiqarishlarini o'rganish rejasi va boshqalar.

Umumiyl o'rta ta'limg maktabi kimyo darslarida xalq xo'jaligi jihatdan muhum ahmiyatga ega bo'lgan, o'quvchilar yaxshi tushunadigan va eng tipik, kimyoviy nazariya hamda qonuniyatlarini amaliy hayotda qo'llanishini aks ettiruvchi kimyoviy ishlab chiqarishlargina o'rganilishi lozim.

O'rta maktabarning quyidagi sinflarda ishlab chiqarish mavzulari alohida o'rganib boriladi. Masalan: 8-sinfda suvni tozalash, ohak ishlab chiqarish, xlorid kislotani sentiz usulda olish, sulfat kislotasi ishlab chiqarish , (kontakt usulda).

9-sinfda ammiak va nitrat kislota ishlab chiqarish, azotli o'g'itlar ishlab chiqarish, superfosfat ishlab chiqarish .

10-sinfda alyuminiy ishlab chiqarish, chuyan va po'lat ishlab chiqarish, neftni qayta ishlash, toshko'mirni koksga aylantirish va boshqalar .

Maktab atrofida joylashgan mahalliy ishlab chiqarishlardan o'quv dasturida nazarda tutilgan talablar me'yordagina o'quv maqsadlari uchun foydalaniladi.

Eng muhum ishlab chiqarishlar misolida o'quvchilar hozirgi zamondan kimyoviy ishlab chiqarishlari uchun umumiyl, tipik bo'lgan ilmiy prinsiplar va ishlab chiqarish asboblari bilan tanishadilar.

Hozigiz zamondan kimyoviy ishlab chiqarishlarining umumiyl o'rta ta'limg maktablarida o'rganilishi lozim bo'lgan umumiyl ilmiy prinsiplarga quydagilar kiradi:

1. Reaksiyaga kirishuvchi moddalarning sifatini oshirish;
2. Issiq, almashinish;
3. Qarshi oqim;
4. Reaksiyaga kirishuvchi moddalarning sirkulyatsiyasi;
5. Kimyoviy reaksiya tezligini va yo'nalishini o'zgartirish (katalizator, optimal temperatura, bosim va konsentrasiyadan foydalanish).

Kimyoviy ishlab chiqarishlarni ratsional uyushtirish prinsiplariga quydagilar kiradi:

1. Ishlab chiqarish jarayonining uzlusizligi va fazalarga bo'linishi;
2. Mexanizasiya va avtomatizasiya;
3. Elektrdan foydalanish;
4. Ishlab chiqarishni kombinirlash;
5. Mehnatni muhofaza qilish;
6. Ishchilarning mehnat unumdarligini oshirish metodlari;

O'rta maktab kimyo kursiga kiritilgan ishlab chiqarish materiali kimyo nazariy asoslarining normal o'zlashtirilishi jarayoniga xalaqit bermasdan, aksincha, bunga yordam berishi kerak.

Ishlab chiqarishning ilmiy prinsiplari bilan o'quvchilarni asta-sekin va ma'lum tartibda



tanishtirish zarur.

O'qituvchi kimyoviy ishlab chiqarish texnologiyasini yetarli darajada to'liq va ravshan bilmasa, o'quvchilarga beriladigan politexnik tayyorgarlik, albatta, abstrakt, yuzaki bo'lib qoladi.

Kimyoviy ishlab chiqarishni muvaffaqiyatli chiqishi uchun o'qituvchi bilan birgalikda o'quvchi ham tayyorgalik ko'rishi kerak.

Bularninig hammasi ishlab chiqarishning o'rganish rejasi asosida olib boriladi.

Mustaqil taraqqiyot yo'lini bosib o'tayotgan mamlakatimizning keljak vorislari yosh avlodning bilim darajasini oshirishda umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda o'tiladigan fanlar qatorida kimyo fanining ham munosib o'rni bor albatta. Kimyoviy bilimlar berish jarayonida o'quv dasturlarida ko'rsatilgan mavzularni turmush bilan bog'lab o'rganish, mahalliy materiallardan kengroq foydalanish, O'zbekiston zaminida mavjud bo'lган elementlar va ularning birikmalari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyitgan holda bayon etish - yosh avlodni milliy maskura talablariga mos tarzda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun samarali xizmat qiladi. Bu vazifalarni amalga oshirishda, bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston buyuk keljak sari» nomli kitobida yoritilgan ma'lumotlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Kimyo darslarida O'zbekiston zamini ega bo'lган tabiiy boyliklar to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishga oid misollar keltiramiz.

«Kimyo fanining xalq xo'jaligidagi ahamiyati» mavzusida quyidagi ma'lumotlardan foydalanish lozim bo'ladi: “O'zbekiston o'z yer osti boyliklari bilan haqli suratda faxrlanadi. Bu hududda Mendeleev davriy sistemasidagi deyarli barcha elementlar uchraydi. Hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan suvlarini bo'lgan” istiqbolli joylar aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беликов В. Г. Фармацевтическая химия. – М.: Высшая школа, 1985
2. Харкевич Д. А. Фармакология, четвертое издание, Москва, 1993.



**KIMYO DARSLARIDA KASBGA YO'NALTIRISHGA OID MASHG'ULOTLARI VA
TURLI MADANIY UMUMIY TADBIRLAR O'TKAZISH**

Saribaeva Gozel Oredurdiyevna
Qoraqalpog'iston respublikasi Taxiatosh tumani
20 – maktab kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada kimyo darslarida kasbga yo'naltirilgan ekskursiya darslarining tashkil etish haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekskursiya, maqsadi, vazifalari, turlari, kasbga yo'naltirish.

O'quvchilarni ishlab chiqarish, mehnat turlari, kasb ta'limi tizimi bilan tanishtirishning muhim shakli ekskursiyadir. O'qituvchi ekskursiyalar o'tkazishni oldindan rejalashtirishi, ekskursiyalar vaqtida o'quvchilar e'tibor berishi lozim bo'lган konkret topshiriqlar tizimini savollar shaklida ishlab chiqishi kerak. Bu savollar ishchi va mutaxassislar mehnatining mazmuniga, ish o'rinnarini tashkil etishga, mehnat sharoitlariga, kasbning shaxsga qo'yadigan talablariga, kasbiy o'sish va xokazolarga taalluqli bo'ladi.

Ekskursiya korxona faoliyatiga xalal bermasligi va ta'limiy jihatdan maksimal darajada samarali bo'lishi uchun o'quvchilarni sexlar, ish uchastkalariga (4-5 kishi) guruhlarga bo'lib olib kirish maqsadga muvofiqdir. Ekskursiyalarni o'tkazishga korxona vakillari, ishlab chiqarishning yosh ilg'orlari va boshqalarni jalg qilish tavsiya qilinadi. Ular o'qituvchiga ekskursiyada gruppalarni almashtirishning aniq grafigini tuzishda yordam berishlari mumkin.

Shuningdek akademik litsey va kasb-hunar kollejlariga ekskursiyalarni rejalashtirishda ular o'quvchilarga kelgusidagi kasblarni tanlashda yordam berishini hisobga olish mumkin. Ishlab chiqarishda kasbga yo'naltirish ekskursiyalarini masalan, quyidagi talablar bo'yicha o'tkazish mumkin:

- "Xalq xo'jaligi kasblari, ularning klassifikatsiyasi",
- mактабга yaqin korxonadagi kasblar bilan tanishi;
- "Salomatlik va kasb tanlash",

- o'quvchilarning ish kunini uzunligi, ish kuni mobaynida mehnat rejimini realizatsiya qilish, chang, shovqin, titrashga qarshi kurash tadbirlari, ishchining kiyimlariga quyiladigan talablar va xokazolar haqida ma'lumotlarni to'plash.

Ekskursiya jarayonida o'quvchilar respublikamiz mehnatkashlarining hayoti, axloqiy sifatlari haqida muayyan bilimlarga ega bo'ladilar.

Ishlab chiqarish korxonalariga uyushtirilgan o'quv ekskursiyalarini taxminiy vazifalari va mazmuni quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Ekskursiyaning tarbiyaviy vazifalari.
 - odamning mehnati natijalariga xurmatni, ularga avaylab munosabatda bolishini tarbiyalash;
 - jamoa, yakka tartibdagi, pudrat, ijara usulida bajariladigan mehnatning afzalligini ko'rsatish;
 - o'z shahri (qishlog'i) kishilariga hurmatni tarbiyalash;
 - hozirgi davrdagi mexnatning o'ziga xos xususiyatlari haqidagi tasavvurni shakllantirish;
 - mehnatga ijodiy munosabatda bolishni zarurligini ko'rsatish;
 - mehnat axliga xurmatni tarbiyalash, notanish kasblarga e'tiborni jalg qilish, mehnat madaniyatini korsatish.

Ekskursiyaning asosiy mazmuni.

- keng iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish bilan tanishish. O'quvchilarga kerak boladigan kitob, mактаб formalari va xokazolarni tayyorlash uchun qanchalik ko'p mehnat, texnika va odam kerak bo'lishini ko'rsatish;

- zavod va daladagi barcha ish jarayonlarining o'zaro bog'liqligini mehnatning jamoa xarakterini, mehnat an'analarini ko'rsatish;

- mehnat mahorati bilan eng yaxshi ko'rsatgichlar, ilg'or kishilar mehnati bilan tanishtirish;

- asosiy ixtiolar va mehnatni takomillashtirishni ko'rsatish, odamlar bilan tanishtirish;

- kasbga qiziqish uyg'otish.

O'quv yurtlari akademik litsey va kasb - hunar kollejlariga tashkil etiladigan ekskursiyalar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Kirish suhbatida o'quvchilarni kasb-hunar kolleji (akademik litsey) ning tarixi, o'quv



jarayonining xususiyatlari ta‘limning ixtisosliklari, o‘quvchilarni ixtisoslar bo‘yicha taqsimlash tartibi bilan, malaka berish qoidalari bilan qisqacha tanishtirish maqсадga muvofiqdir. O‘quvchilar oldiga ekskursiya oxirida javob beriladigan quyidagi savollar quyiladi:

- kasb - hunar kollejida qaysi ixtisosliklar bo‘yicha ta‘lim beriladi?
- kasb - hunar kollejlaridagi ta‘limning maqsadi nima?
- qanday korxonalar kasb-hunar kolledji uchun ba‘za korxona hisoblanadi?
- o‘quvchilarning ishlab chiqarish amaliyoti qayerda o‘tadi?
- ta‘lim ixtisoslari bo‘yicha taqsimot qanday amalga oshiriladi?

Obzor ekskursiya vaqtida o‘quvchilar o‘quv korxonalari va ustaxonalarini, ulardagi asbob uskunalarni, texnik ijodkorlik to‘garaklari ishlaydigan xonalarni, o‘quvchilar yasagan buyumlar ko‘rgazmasini ko‘zdan kechiradilar, o‘qituvchilar va ishlab-chiqarish ta‘limi ustalari bilan tanishadilar. Ekskursiyani yakunlashda berilgan savollar bo‘yicha o‘quvchilar bilansuhbat o’tkaziladi; so‘rash (og‘zaki yoki yozma) natijalari bo‘yicha o‘quvchilarning dastlabki kasbiy qiziqishlari belgilanadi.

O‘quvchilarga amaliy tanishish uchun tavsiya etiladigan ixtisoslarning umumiyligi soni turlicha bo‘lishi mumkin (kasb hunar kolleji yoki akademik litsey ixtisoslarining nomeklaturasiga, o’smirlar qiziqishlarining xususiyatlariga, mahalliy ishlab chiqarish muxiti va xokazolarga bog’liq holda). Lekin uchtadan kam bo‘lmasligi kerak. Quyida o‘quvchilarni kasbga yo’naltirish maqsadida o’tkaziladigan ekskursiyalardan namunalar keltiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.F.Yo‘ldoshov, S.A.Usmonov —Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy qilish|| Toshkent 2008. 65-73 betlar.
2. Mamataliyev N.N —Kimyo fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda electron darsliklarning o‘rnini, isliqlol va yoshlari 1 -qism|| Toshkent 2008

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 21-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиши муддати: 31.07.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000